

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KUCHIYEV MALIK ABDUMANNONOVICH

**HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA FRAZELOGIZMLAR ISHTIROK
ETGAN ILOVA KONSTRUKSIYALAR: STRUKTUR-SEMANTIK
TAHLIL**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Kuchiyev Malik Abdumannonovich

Hozirgi zamon nemis tilida frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalar:
struktur-semantik tahlil..... 3

Кучиев Малик Абдуманнонович

Присоединительные конструкции с фразеологизмами в современном
немецком языке: структурно-семантический анализ 25

Kuchiev Malik Abdumannonovich

Connecting constructions with phraseological units in modern German: structural -
semantic analysis 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KUCHIYEV MALIK ABDUMANNONOVICH

**HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA FRAZELOGIZMLAR ISHTIROK
ETGAN ILOVA KONSTRUKSIYALAR: STRUKTUR-SEMANTIK
TAHLIL**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fil2742 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdhti.uz hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Begmatov Muxtor Begmatovich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponenlar:

Rizayev Baxodir Xaydarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Xoliyarov Lutfulla Tashquvatovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning «___» _____ 2024-yil soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 85A-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____ dagi №___ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Yaxshiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalarning lingvistik mohiyati, ularning badiiy matnda ifodalanishi bilan bog‘liq struktur-semantik xususiyatlar va ularning tuzilishini aniqlash masalasi ko‘plab tadqiqot ishlarining obyekt bo‘lib kelmoqda. Bunday konstruksiyalar o‘zining o‘rganilish tarixiga ega bo‘lgan grammatik hodisa hisoblanib, hozirgacha tilshunoslik fani doirasida muhim va nisbatan kam o‘rganilgan dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ta’kidlash kerakki, ko‘p hollarda ilova hodisasi va uning ko‘plab xususiyatlari, asosan, grammatik nuqtayi nazardan tadqiq qilingan, ammo unga bog‘liq bo‘lgan strukturaviy, semantik, stilistik, pragmatik, tipologik, fonetik va boshqa xususiyatlar matn doirasida nisbatan kam o‘rganilgan. Tadqiqot obyektiga tizimli yondashuv asosida ilova konstruksiyani matn doirasida struktur-semantik tahlil qilish, ular ma’nosining badiiy matnda ifodalanish zaruratining yuzaga kelishi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligidan darak beradi.

Hozirgi zamon dunyo tilshunosligida ilova hodisasi, murakkab sintaktik butunlik, sintaktik munosabatlar sohasida namoyon bo‘ladigan jarayonlar, ularni o‘rganish, tahlil qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar doimiy ravishda amalga oshirilayotganiga qaramasdan, frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalarning struktur-semantik ma’nosining badiiy matn tarkibida yoyilishi va ifodalanishi masalalari ko‘pgina tillar materiallari asosida to‘liq va chuqur o‘rganilmagan. Shuning uchun ham, badiiy matnlarda frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalarning struktur-semantik ma’nosining ifodalanishini o‘rganishga zarurat mavjud. Ana shundan kelib chiqib, mazkur muammolarni hal qilish uchun tilshunoslikda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq barcha sohalarida keng miqyosda islohotlar olib borildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonida o‘z ifodasini topgan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida respublika oliy ta’lim tizimini xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, ilg‘or xorijiy tajribani chuqur o‘rganish va tahlil qilish asosida ta’lim dasturlarini jahonda tan olingan xalqaro standartlar talablariga moslashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish”¹ vazifasi belgilangan. Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlashda ham keng ko‘lamdagi lingvistik tadqiqotlar, tillararo chog‘ishtirma izlanishlarga bo‘lgan zarurat kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barcha sohalarida fanning rolini oshirish, mamlakatning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan ishlar xorijiy tillarni har tomonlama chuqur o‘rganish, ularni turli yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy jihatdan tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotlar va izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda,

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni// <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.

murakkab sintaktik birliklar, frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalar ma'nosining badiiy matnda ifodalanishini tadqiq qilish hamda ularni struktur-semantik jihatdan tavsiflash zarurati mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish sifatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sintaktik frazeologiya til sintaksisi va frazeologiyasida yangi yo'nalishdir. Tilshunoslikning ushbu bo'limi keyingi yillarda faolroq rivojlanmoqda (Masalan, Z.R.Agleyeva, S.V.Andreyeva, G.G.Infantova, V.I.Koduxov, M.M.Kopylenko, V.Yu.Melikyan, O.I.Moskalskaya, L.A.Piotrovskaya, L.P.Gasheva, O.B.Sirotinina, N.Yu.Shvedova² va boshqalar).

² Аглеева З.Р. Фраzeологизированные конструкции в разноструктурных языках. – Москва: КНОРУС, 2016. – 242 с.; Андреева С.В. Элементарные конструктивно-синтаксические единицы устной русской речи и их коммуникативный потенциал: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Саратов, 2005. – 50 с.; Инфантова Г.Г. Очерки по синтаксису современной русской разговорной речи. – Ростов: Издательство Ростовского государственного педагогического университета, 1973. – 135 с.; Кодухов В.И. Синтаксическая фразеологизация // Проблемы фразеологии и задачи ее изучения в высшей и средней школе. – Вологда: Северо-Западное книжное издательство, 1967. – С. 123-137; Копыленко М.М. Сопоставительная фразеология: состояние и перспективы // Лексические и грамматические компоненты языкового знака. – Воронеж: ВГУ, 1983. – С. 149-157; Меликян В.Ю. Синтаксически связанные конструкции: структурно-семантический, этимологический, функциональный и фразеологический аспекты (на материале английского языка) // Вопросы филологии. 2015, № 3 (51). – С. 10-20; Москальская О.И. Грамматический идиоматизм и синтагматика // Иностранные языки в высшей школе. – Москва, 1962, Выпуск 1. – С. 3-10; Пиотровская Л. А. К вопросу о синтаксической фразеологии // Славистический сборник: в честь 70-летия профессора Петра Андреевича Дмитриева. – Санкт-Петербург: Издательство Санкт-Петербургского университета, 1998. – С. 111-118; Гашева Л.П. Позиция процессуальных фразеологизмов в предложении (семантико-грамматический и коммуникативный аспекты): Монография. – Челябинск: Издательство Челябинского государственного педагогического университета, 1999. – С. 11; Сиrotинина О.Б. Русский язык: система, узус и создаваемые ими риски. – Саратов: Издательство Саратовского государственного университета, 2013. – 116 с.; Шведова

Germanshunoslukda frazeologik birliklarni tadqiq qilish, ularning stilistik, grammatik, ritorik, me'yoriy va hokazo xususiyatlari muammolari bilan bog'liq masalalar ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarining obykti sifatida ko'rib chiqilgan (V.Fleysher, H.Burger, A.H.Buhofer, C.Palm Meister, E.Gulich, E.Hallsteinsdottir J.Hausermann³ va boshqalar).

Tilshunoslik fanida sintaktik frazeologiya, ilova hodisasi, frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalar masalasi uzoq vaqt davomida butun dunyo tilshunoslari e'tiborini tortib kelgan. Xususan, nemis tilshunosligida ilova hodisasi, frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalar va sintaktik konstruksiyalar H.Altmann, H.Brinkmann, W.Kindt, E.Riesel, E.Schendels, B.Sandig, W.Schmidt⁴ kabi tadqiqotchilarning ishlarida tadqiq etilganligini ko'rish mumkin. Ular ilova hodisasi gapning sintaktik aloqalarining ayrim masalalarini muhokama qilish jarayonida to'xtalib, ilova hodisasi, ilova konstruksiyasi masalasini semantik va grammatik ma'no, struktura doirasida tadqiq qilishgan.

Sintaktik frazeologik birliklar, ilova hodisasini o'rganish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar MDH mamlakatlari tilshunoslari asarlarida mazkur muammoni o'rganishning turli yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan. Ayniqsa, rus tilida ilova konstruksiyalari, sintaktik frazeologik konstruksiyalar bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Rus tilshunos olimlari S.E.Kryuchkov⁵ ilova hodisasi va ilova konstruksiya masalasini ham nazariy, ham amaliy tomondan tahlil qilgan, N.S.Pospelov⁶ sintaktik tuzilmadagi asosiy qism (gap) va ilovali elementlarni birgalikda "murakkab sintaktik butunlik" deb ataydi, T.L.Vaulina⁷ gazeta tilida ilova hodisasi va ilova konstruksiyalarning struktural, semantik va funksional xususiyatlarini tadqiq qilgan, boshqalari esa ularning tuzilishi, bajarib kelayotgan funksiyalari, ilova aloqalarning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy matnlarda stilistik jihatdan qo'llanishi kabi masalalar bo'yicha fikr-mulohazalar bildirgan.

Н.Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи. – Москва: Азбуковник, 2003. – 377 с.

³ Buhofer A.H. Psycholinguistik der lexikalischen Lebendigkeit Phraseologismenkenntnis in verschiedenen Lebensaltern am Beispiel einiger schweizerdeutscher Phraseologismen // *Spracherwerb und Lebensalter*. – Tübingen, 2002. – S. 279-292; Burger H. *Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen*. – Berlin, 2010. – 239 S.; Fleischer W. *Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache*. – Tübingen, 1997. – 299 S.; Hausermann J. *Phraseologie: Hauptprobleme der deutschen Phraseologie auf der Basis sowjetischer Forschungsergebnisse*. – Tübingen, 1977. – 144 S.; Palm Meister C. *Phraseologie im literarischen Text am Beispiel von Morgenstern, Kafka, Brecht, Thomas Mann und Christa Wolf // Phraseme und typisierte Rede*. – Tübingen, 1999. – S. 111-120; Gulich E. *Zur Rolle des Vorgeformten in Textproduktionsprozessen // Phraseologismen in Text und Kontext*. – Bielefeld, 1987. – S. 11-32; Hallsteinsdottir E. *Das Verstehen idiomatischer Phraseologismen in der Fremdsprache Deutsch*. – Hamburg, 2001. – 332 S.

⁴Altmann H. *Formen der Herausstellung im Deutschen: Rechtsversetzung, Linksversetzung, freies Thema und verwandte Konstruktionen*. – Tübingen: Niemeyer, 1981. – S. 369; Brinkman H. *Die deutsche Sprache. Gestalt und Leistung*. – Düsseldorf: Pädagogischer Verlag Schwann, 1971. – 939 S.; Kindt W., Rieser H. *Syntax- und Semantikkoordination im Dialog*. – Berlin: Springer-Verlag, 1999. – S.123-128; Riesel E., Schendels E. *Deutsche Stilistik*. – Moskau: Verlag Hochschule, 1975. – 316 S.; Sandig B. *Zur historischen Kontinuität normativ diskriminierter syntaktischer Muster in spontaner Sprechsprache. Deutsche Sprache 1, 3*. – Berlin, 1973. – S. 37-57; Schmidt W. *Deutsche Sprachkunde*. – Berlin: Volk und Wissen, 1968. – 356 S.

⁵Крючков С.Е. О присоединительных связях в современном русском языке // *Вопросы синтаксиса современного русского языка*. – Москва: Учпедгиз, 1950. – 400 с.

⁶Пospelov Н.С. Сложное синтаксическое целое и основные особенности его структуры // *Доклады и сообщения Института русского языка*. – Москва, 1948, выпуск 2. – С. 68.

⁷Ваулина Т.Л. Роль лексического повтора в присоединительных конструкциях // *Наука – вуз – школа*. – Магнитогорск: МаГУ, 2010, выпуск 15. – С. 182-186.

Ilova hodisasi, ilova konstruksiyalar muammolari bo'yicha o'zbek germanistlaridan B.T.Tursunov, B.M.Axmedova, M.Begmatov, I.U.Mamasoliyev, M.R.Rahimovlar⁸ tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ular o'z tadqiqot ishlarida ilova hodisasi sintaktik aloqaning alohida turi ekanligini ko'rsatib, nemis yozuvchisi L.Feyxtvanger ijodida ilova hodisasi, ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchilar) orqali ifodalangan ilovali elementlarning funksiyalari, ilova konstruksiyalarning hozirgi zamon nemis badiiy adabiyotida stilistik jihatdan qo'llanishi masalalarini ma'lum darajada tadqiq qilishgan. Tilshunoslikda mazkur sohada olib borilgan yuqorida tilga olingan tadqiqotlar so'zsiz ilova hodisasi muammolarini yechishga ma'lum darajada hissa qo'shgan. Ushbu mulohazalar bizga frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalar struktur-semantik ma'nosining badiiy matnda ifodalanishini tadqiq etish imkonini berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand davlat chet tillar institutining "Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlari" mavzusidagi istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matnda frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalarning struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash va tavsiflashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

sintaktik frazeologik birliklar, ilova konstruksiya, ilovali element, badiiy matn kabi tushunchalarni tahlil qilgan holda tadqiqotning nazariy asosini aniqlash;

frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyaning lingvistik tahlili asosida ilovali elementlarning struktur xususiyatlarini tahlil qilish hamda yoritib berish;

hozirgi zamon nemis tili ilova konstruksiyasidagi frazeologizmlardan tashkil topgan ilovali elementlar leksik tarkibiga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash va ularning struktur-semantik tomonlarini o'rganish;

frazeologizmlar ishtirok etgan ilovali elementlarni struktur-semantik jihatdan tahlil qilish asosida ilova konstruksiya tarkibidagi birliklarning funksional-semantik xususiyatlarini tavsiflash.

Tadqiqotning obyekti sifatida nemis tilidagi badiiy asarlar matnlarida qo'llanilgan frazeologizmlardan tashkil topgan ilova konstruksiyalar olingan.

Tadqiqotning predmetini badiiy matndagi frazeologizmlardan tashkil topgan ilova konstruksiyalarning struktur-semantik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning metodlari sifatida ishda komponent tahlil, tasnifiy tahlil, struktur tahlil, shuningdek, lingvistik tasvirlash va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

⁸Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи: Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993. – 44 с.; Ахмедова Б.М. Лион Фейхтвангер ижодиди илова ходисаси: Филология фанлари бўйича номзодлик диссертацияси. – Самарқанд, 1998. – 187 б.; Бегматов М. Тўлдирувчилар билан ифодаланган иловали элементларнинг функциялари: Филология фанлари бўйича номзодлик диссертацияси. – Тошкент, 1999. – 24 б.; Мамасолиев И.У. Ҳозирги немис тилида илова конструкцияларнинг стилистик-прагматик функциялари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Самарқанд, 2022. – 136 б.; Rahimov M.R. Badiiy matnda ilova konstruksiya struktur-semantik ma'nosining ifodalanishi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD). – Samarqand: SamDCHTI, 2023. – 128 b.

hozirgi zamon nemis badiiy asarlarida qo‘llanadigan sintaktik frazeologik birliklar, ilova hodisasi, ilova konstruksiya, ilovali element kabi tushunchalarni nemis yozuvchilarning asarlaridan olingan misollar asosida tahlil qilgan holda tadqiqotning nazariy asosi aniqlangan;

frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyaning lingvistik tahlili asosida tilning badiiy tasvir vositalari bajarib keladigan funksiyalari yordamida ilovali elementlarning struktur xususiyatlari ochib berilgan;

hozirgi zamon nemis tili ilova konstruksiyasidagi frazeologizmlardan tashkil topgan ilovali elementlar leksik tarkibiga xos bo‘lgan xususiyatlari va ularning struktur-semantik o‘ziga xosligi til birliklarining ma’no xususiyatlari va sinonimligi asosida dalillangan;

frazeologizmlar ishtirok etgan ilovali elementlarni struktur-semantik nuqtayi nazardan tahlil qilish asosida ilova konstruksiya tarkibidagi birliklar funksional-semantik vazifalarni bajarib kelishi badiiy matndan olingan ko‘p sonli misollar namunasida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyaning tahlili asosida ilovali elementlarning struktur jihatdan turlari va xususiyatlari aniqlangan, tahlilga tortilgan lisoniy birliklar struktur xususiyatining badiiy asarlar matnlarida qo‘llanish darajasi ko‘rsatib berilgan.

frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyadagi ilovali elementlarning leksik tarkibiga xos bo‘lgan xususiyatlari aniqlangan va ularning struktur-semantik funksiyalari o‘rganilgan, ilova konstruksiyaning struktur-semantik xususiyatlari bilan bog‘liq tomonlari hamda funksiyalari tilshunoslik, nazariy va amaliy grammatika, leksikologiya kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining takomillashuviga yordam berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy yondashuvlar, tahlil metodlari, yaratilgan nazariyalar va lingvistik konsepsiyalarning qo‘llanganligi, tahlilga tortilgan katta hajmdagi faktik material va amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishida nazariy holatlarga muvofiqligi, tahlil hamda natijalarning asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati amalga oshirilgan tahlillar asosida olingan natijalardan frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiya struktur-semantik tadqiqotining keyingi rivojlanishida, shuningdek, boshqa tillar materiallarida olib boriladigan ilmiy izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa oliy ta’lim tizimida “Nazariy grammatika”, “Leksikologiya”, “Matn tahlili”, “Frazeologiyaning dolzarb muammolari” kabi fanlardan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Matn lingvistikasi”, “Zamonaviy lingvistika” kabi maxsus kurslarni o‘qitishda, bitiruv malakaviy ishlar va magistrlik dissertatsiyalarini yozishda foydalanish mumkinligi orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosalar, ishlanma hamda takliflar asosida:

sintaktik frazeologik birliklar, ilova hodisasi, ilova konstruksiya, ilovali element, badiiy matn kabi tushunchalarni tahlil qilgan holda dissertatsiya ishining ilmiy natijalari va xulosalaridan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 16-yanvardagi 108/02-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada mutaxassislik fanlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida virtual resurslar yaratishda sintaktik frazeologik birliklar, ilova konstruksiya, ilovali element, badiiy matn kabi tushunchalarni tahlil qilishda qo‘llanilgan komponent tahlil, tavsifiy-tahliliy, statistik metodlardan foydalanilgan holda “O‘qish va yozish amaliyoti”, “Badiiy matnning konseptologik tahlili”, “O‘rganilayotgan til nazariy aspektlari”, “Stilistika va matn tahlili” fanlarida sintaktik frazeologik birliklar, ilova hodisasi, ilova konstruksiya, ilovali elementlarning ifodalanish usullarini tadbiq qilish orqali talabalar bilimini boyitishga xizmat qilgan;

frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyaning lingvistik tahlili asosida ilovali elementlarning struktur xususiyatlarini ochib berishga doir mulohazalardan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities” (CLASS: “Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha magistratura dasturini ishlab chiqish”) nomli innovatsion loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 9-apreldagi 755/02-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu innovatsion loyihada mazkur tadqiqot materiallaridan foydalangan holda o‘qituvchi va talabalarning tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasi borasidagi bilimlarini oshirish hamda til tizimi bilan bog‘liq muammolarning amaliy yechimiga qaratilgan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan dasturlar, shuningdek, matnlarni tahrirlash, kompyuter tarjimasi, elektron lug‘atlarini yaratish uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanmalar, risolalar ishlab chiqishda frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyaning lingvistik tahlili asosida ilovali elementlarning struktur xususiyatlarini tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar, amaliy taklif va tavsiyalar muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilgan;

hozirgi zamon nemis tili ilova konstruksiyasidagi frazeologizmlardan tashkil topgan ilovali elementlar leksik tarkibiga xos bo‘lgan xususiyatlari va ularning struktur-semantik o‘ziga xosligini aniqlashga doir mulohazalardan № FZ-2019062034 raqamli “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish” nomli amaliy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillar universitetining 2024-yil 24-apreldagi 24/244-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy ish natijalarining qo‘llanilishi zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlar ishtirok etgan ilovali elementlarni struktur-semantik nuqtayi nazardan tahlil qilish asosida ilova

konstruksiya tarkibidagi birliklar funksional-semantik vazifalarni bajarib kelishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar, amaliy taklif va tavsiyalar loyiha doirasida yaratilgan nemis tilida so'zlashuvchilar uchun o'zbek tilini o'rgatish normativlari, grammatik mashqlar va lug'atlar tuzishda qo'l kelgan;

hozirgi zamon nemis tili ilova konstruksiyasidagi frazeologizmlardan tashkil topgan ilovali elementlarning o'ziga xosligi va ularning funksional-semantik vazifalarni bajarib kelishi haqidagi xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2024-yilning 22-yanvar kuni efirga uzatilgan "Assalom Samarqand" ko'rsatuvini navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 23-yanvardagi 01-07/26-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada xorijiy tillarni o'rganish borasidagi nazariy jihatlarining takomillashuviga erishilgan. Dissertatsiyada ilgari surilgan muhim ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega tavsiyalardan keyingi ko'rsatuvlarda ham foydalanish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalari chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 3 ta xorijiy, respublika jurnallarida 3 ta ilmiy ish e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Sintaktik va ilova konstruksiyalarni tadqiq qilishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida sintaktik frazeologiyaning shakllanish tarixi, tilshunoslikda sintaktik frazeologiyani tadqiq qilish usullari, nemis tilshunosligida murakkab sintaktik butunlik – ilova konstruksiyalarning o'rganilishi haqida fikr yuritiladi.

Tilning frazeologik tarkibiga nazar soladigan bo'lsak, u asrlar davomida ko'plab ilmiy tadqiqotlarning obyekt sifatida tadqiq qilingan. Nutqning frazeologiya va idiomalar ishtirokidagi, shuningdek, frazeologiyalashgan sintaktik konstruksiya muammolari jahonning ko'pchilik olimlarini qiziqtirib kelgan.

Aytish joizki, frazeologiya nisbatan ancha yosh lingvistik fan hisoblanib, tilshunoslikning alohida sohasi sifatida shakllanishi XX asrning 40-50-yillariga to'g'ri keladi. Frazeologiya nazariyasi 60-yillarda yanada rivojlandi.

Sh.Balli “Французская стилистика” asarida tarkibiy qismlarining turg’unligi asosida so‘z birikmalarini ajratgan. U erkin so‘z birikmalari komponentlarini guruhlashni amalga oshiradi va erkin bo‘lmaganlar bilan ajratib ko‘rsatdi. Sh.Balli so‘z birikmalarining bu guruhlarini ularga batafsil tavsif bermasdan, faqat sxematik tarzda ko‘rsatadi⁹. U ushbu asarida so‘z birikmalarining ikkita asosiy guruhini ajratadi: erkin birikmalar va frazeologik birliklar.

Rus tilshunosligida mazkur masalada biroz boshqacha yondashuv mavjud bo‘lgan. Tilshunos olim Ye.D.Polivanov frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil “bo‘limi” (ham tarixiy, ham tavsifiy) sifatida ko‘rish mumkinligini ta’kidladi.

Uning asarlarida frazeologiya atamasi morfologik sintaktik semantikaga tegishli bo‘lgan maxsus fanga nisbatan qo‘llaniladi. U frazeologiya “kelajakdagi lingvistik adabiyotda – fanimiz turli muammolarini izchil shakllantirishda tasodifiy bo‘shliqlardan xoli bo‘lgan” da¹⁰ mustaqil va barqaror o‘rin egallaydi degan fikrni ilgari suradi.

Sintaktik frazeologik birliklarni o‘rganish, sintaktik frazeologiyaning maxsus bilim sohasi sifatida shakllanishi XX asrning 60-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda tilshunos olimlar N.Yu.Shvedova va D.N.Shmelev sintaktik frazeologiyani o‘rganishga katta e’tibor qaratganlar. N.Yu.Shvedova bu birliklarni frazeologik tuzilmalarni tizimli tadqiq qilishning asosini tashkil qilishi haqida gapirib, ularni so‘zlashuv nutqining xarakterli sintaktik konstruksiyalari deb hisoblaydi. U ko‘p sonli frazeologizmlarning tasnifi va tavsifini keltiradi va bunday birliklar “erkin” tuzilmalar o‘rtasidagi farqlarni nazariy asoslab berdi¹¹.

Tilshunos olim D.N.Shmelev tomonidan ham grammatik shakllarning semantikasi barqarorlik va takrorlanish bilan tavsiflangan. U o‘z tadqiqotlarida o‘zgarishlarga uchragan bunday sintaktik konstruksiyalarni tadqiq qilgan. Shu asnoda, frazeologik sxemalar hosil bo‘lib, u keyinchalik “iboralar sxemasi”¹² tushunchasini qo‘llagan, chunki u gap shaklidagi sxemaning o‘zini frazeologik birlik deb hisoblagan.

“Фразеологизированные конструкции в разноструктурных языках” nomli monografiyasida I.N.Kaygorodova konsepsiyaga tayanib, frazeologiyalashtirish jarayoni bilan “asl jumlaning semantik tarkibining predikativ komponentlarini qayta ko‘rib chiqish, modal komponentlarni kamaytirish, ularni o‘zgartirish va o‘zlashtirish jarayonlari”¹³ o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. U bunday sintaktik konstruksiyalarni “sintaktik idiomalar” obyekt bo‘lgan birliklar deb hisoblaydi. Tadqiqotchining fikricha, bunday jarayonlar natijasida motivli frazeologik birliklar hosil bo‘ladi. Bu jarayonlarning barchasi, fikrimizcha, birgalikda frazeologik tuzilmalarning murakkab jarayonini ifodalaydi. Mazkur tadqiqot ishida “nutqda motivlashgan frazeologik birliklarning paydo bo‘lishi” jarayonida besh bosqichni,

⁹ Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1961. – С. 67.

¹⁰ Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. – Ленинград: Ленинградского восточного института имени А.С. Енукидзе, 1928. – 220 с.

¹¹ Шведова Н.Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи. – Москва: Азбуковник, 2003. – 377 с.

¹² Шмелёв Д.Н. Синтаксическая членимость высказывания в современном русском языке. – Москва: УРСС, 2006. – 152 с.

¹³ Аглеева З.Р. Фразеологизированные конструкции в разноструктурных языках. – Москва: КНОРУС, 2016. – С. 6.

shuningdek, bir nechta atamalarni ajratish taklif qilinadi: “frazeologik qurilish, idiomatik tuzilish, sintaktik idioma”. Atamalardan shu narsa anglashiladiki, muallif o‘zi ajratadigan sintaktik frazeologik birliklarning har xil turlarini nazarda tutgan. Bu yerda semantikaning o‘ziga xos xususiyatlari va frazeologizmga asoslangan birliklar haqida so‘z yuritiladi.

Sintaktik frazeologiyada frazeologik va sintaktik darajalarning xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan sinkretik birliklar ko‘rib chiqiladi. Bunday konstruksiyalar dunyoning ko‘plab tillarining so‘zlashuv nutqida faol bo‘ladi. Ularning o‘ziga xosligi shundaki, ulardagi stereotipli konstruksiya semantik o‘zgaruvchanlikning xilma-xil kombinatsiyalarida qo‘llana oladi.

Professor E.G.Rizelning “Abriss der deutschen Stilistik” deb nomlangan asaridagi frazeologik birliklarning stilistik tasnifi nemis frazeologiyasi stilistikasiga asos soladi¹⁴. Ushbu ishda frazeologizmlarning turli kontekstlarda qo‘llanilishining ko‘plab holatlari misol sifatida keltirilgan. Muallif frazeologik birliklarning ekspressiv belgilanishi haqida gapirib, ularning ekspressiv funksiyalariga ishora qiladi¹⁵.

E.G.Rizel frazeologik birliklarni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratadi va frazeologik birliklar stilistik qo‘llanishda o‘zgarishlarga uchraydi, degan xulosaga keladi. Masalan, so‘z birikmalari dastlab so‘zlashuv, jurnalistika, ilmiy nutq va hokazolarga ko‘chiriladi.

Sintaktik frazeologik birliklarni o‘rganish uchun atamaning tor ma‘nosida frazeologik birliklar bo‘lgani kabi turli xil tahlil usullari to‘plamini tanlash mumkin: etimologik tahlil (sintaktik frazeologik birliklarning yaratuvchi asosini aniqlash uchun), transformatsion (sintaktik frazeologik birliklar tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘rganish uchun) usuli, distributiv, muhit bo‘yicha tahlil qilish (konstruktiv sintaktik frazeologik birliklar), kontekstual (semantik munosabatlar va sintaktik frazeologik birliklar) usuli, shuningdek, tadqiqotchilar ta‘kidlaganidek, “variatsion” (intrakomponent leksik, semantik, morfologik va sintaktik munosabatlar), identifikatsiya (yoki sinonimik taqqoslash: frazeologik birliklarning leksik-semantik ekvivalentini tanlash), ichki lisoniy va tillararo tarjima, semantik tuzilmaning komponent tahlili, lug‘aviy definitsiya, modellashtirish va hokazo. Ularning har biri o‘ziga xos ma‘no doiralariga ega.

Sintaktik frazeologiya birliklarini o‘rganishda strukturaviy-tipologik, sinxron-qiyosiy, diaxronik-qiyoslash, parallel va ketma-ket tasvirlash, shuningdek, frazeologik modellashtirish usullari keng qo‘llaniladi.

Sohaga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida sintaktik frazeologik birliklar turli xil nomlarga ega ekanligi ko‘zga tashlanadi: iboralar yoki idiomalar (Lomonosov)¹⁶, so‘zlarning barqaror birikmalari (Abakumov)¹⁷, leksik iboralar (Meshchaninov)¹⁸, idiomalar (Bulaxovskiy)¹⁹,

¹⁴ Riesel E.G. Abriss der deutschen Stilistik. – Moskau, Verlag für fremdsprachige Literatur, 1954. – S. 218.

¹⁵ Riesel E.G. Stilistik der deutschen Sprache. – Moskau: Verlag für fremdsprachige Literatur, 1959. – S. 201.

¹⁶ Ломоносов М. В. Российская грамматика. – Санкт-Петербург: Типография Императорской академии наук, 1755. – 212 с.

¹⁷ Абакумов С.И. Устойчивые сочетания слов // Русский язык в школе. 1936, № 1. – С. 58-64.

¹⁸ Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. – Москва: Издательство АН СССР, 1945. – 322 с.

¹⁹ Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – Москва: Учпедгиз, 1954. – 177 с.

ajratilmaydigan iboralar (Peshkovskiy)²⁰, dialogik nutqning stereotipli iboralari (Bally)²¹, dialogik nutqning statsionar iboralari (Arxangelskiy)²², frazeologik birliklar (Koduxov)²³, frazeologik birliklar (Vinogradov)²⁴, qo‘shilgan so‘zlar yoki qo‘shilib ketgan gaplar (Fortunatov)²⁵, N.Yu. Shvedova esa ularga turli nomlar bergan: muzlatilgan konstruksiya, qolipli ibora, sintaktik frazeologik birlik, sintaktik ibora (Shvedova)²⁶, D.N.Shmelyov bu hodisaga “bog‘langan sintaktik qurilish” (Shmelyov)²⁷, “iboralar sxemasi” (Shmelyov)²⁸ nomlarini beradi.

Frazeologiyalashgan sintaktik konstruksiyalarni, shuningdek, frazeologik birliklarning boshqa turlarini shakllantirish uchun nutqning avtomatizmi va tejamkorligi jarayonlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ularning amalga oshirilishi va o‘zaro ta’siri natijasida “aktualizatsiya (yangilash) hodisasi tufayli nutqning erkin birikmalari bo‘lmagan shaklga aylanadi. Aktualizatsiya til birligining barqarorligi uchun asos yaratadi va ikkinchisining semantik va grammatik o‘zgarishlarini belgilaydi”²⁹.

Tadqiqot ishining **“Frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalarning struktur xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida nemis tilida frazeologizmlar ilova konstruksiyalarning elementi sifatida qo‘llanilishi, frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalarning strukturaviy ko‘rinishlari ochib berilgan.

Jahon tilshunosligida olib borilgan lingvistik tadqiqotlarda ilova konstruksiyalarning mazmun-mohiyati, ilovali elementlarning stilistik strukturalarini aniqlash masalalari ko‘plab tadqiqot ishlarining obyekti bo‘lib kelmoqda. Ilova hodisasi ma’lum darajada o‘zining tarixiga ega bo‘lgan grammatik hodisa hisoblanib, hanuzgacha tilshunoslik fani doirasida muhim, biroq nisbatan kam o‘rganilgan dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Taniqli tilshunos A.T.Krivosovning ta’kidlashicha, “nemis tili grammatikasi darsligida ilova konstruksiyalar deb, bir xil tabiatga ega bo‘lmagan sintaktik hodisalar tushuniladi. Nemis tilida ma’lum darajada keng yoyilgan ilova konstruksiyalar nemis tilshunosligida hozirgi kungacha nisbatan kam o‘rganilgan mavzu hisoblanadi”³⁰. U tomonidan bildirilgan ushbu fikr ilova konstruksiyalarning alohida mustaqil ilmiy-tekshirish obyekti sifatida o‘rganishga asos bo‘lmoqda. Uning fikriga qo‘shilgan holda, yana shu narsani alohida

²⁰ Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – Москва: Учпедгиз, 1956. – 511 с.

²¹ Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1961. – 394 с.

²² Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов-на -Дону: Издательство Ростовского университета, 1964. – 315 с.

²³ Кодухов В.И. Синтаксическая фразеологизация // Проблемы фразеологии и задачи ее изучения в высшей и средней школе. – Вологда: Северо-Западное книжное изд-во, 1967. – С. 123-137.

²⁴ Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – Москва: Наука, 1977. – 485 с.

²⁵ Fortunatov Ф.Ф. Сравнительное языковедение. Общий курс. – Москва: Красанд, 2010. – 184 с.

²⁶ Шведова Н.Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи. – Москва: Азбуковник, 2003. – 377 с.

²⁷ Шмелёв Д.Н. О связанных синтаксических конструкциях в русском языке // Вопросы языкознания. – Москва, 1960, №5. – С. 47.

²⁸ Шмелёв Д.Н. Синтаксическая членимость высказывания в современном русском языке. – Москва: УРСС, 2006. – 152 с.

²⁹ Лаптева О. А. Русский разговорный синтаксис. – Москва: Наука, 1976. – С. 124.

³⁰ Кривосов А.Т. Система неизменяемых классов слов (на материале немецкого языка). – Саратов: Издательство Саратовского университета, 1974. – С. 72-73.

ta'kidlash lozimki, nemis tilida nafaqat frazeologizmi ilova konstruksiyalar, balki nemis tilshunosligida mavjud bo'lgan barcha ilova konstruksiya turlarini o'rganish hozirgi kungacha eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Ilova konstruksiyalarning ayrim qirralari, ya'ni ularning stilistik, kommunikativ, pragmatik xususiyatlari faqat endilikda kun tartibiga qo'yilmoqda. Shu boisdan, ba'zi holatlarda bahsli munozaralarning guvohi bo'lamiz.

Tabiiyki, ko'pincha ilova konstruksiyalarning tarkibiy qismlari bir-birlaridan nuqta tinish belgisi orqali ajratiladi, ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, ilova aloqalar nuqta, nuqtali vergul, tire, qavs va ko'p nuqta mavjud bo'lganda ham sodir bo'lishi mumkin. Ma'lumki, nuqta tinish belgisi tugallangan to'liq yoki to'liqsiz darak gaplar oxirida qo'llanadi. Nuqtaning funksiyalaridan biri gapga ko'proq ma'nodorlik berishga harakat qilishdan iborat. Ilova konstruksiyalarida ham bog'lovchili, ham bog'lovchisiz bog'li matnlarni sintaktik bo'laklarga bo'lishda nuqta muhim rol o'ynaydi.

Ko'p hollarda, ikki va undan ortiq kommunikativ mustaqil nutq birliklaridan tashkil topgan, gaplarni ajratib turuvchi nuqta tinish belgilariga ega bo'lgan, mazmunan-grammatik munosabatlar asosida bir butunga birlashgan, nuqta orqali harakat qiladigan murakkab birlik lingvistik adabiyotlarda "murakkab sintaktik butunlik" deb ataladi.

Aytib o'tilgan fikr-mulohazalarning barchasi shundan darak beradiki, nafaqat sintaktik, balki ma'no munosobatlari ham bir gap chegarasidan tashqariga chiqishi mumkin. Jumladan, agar sintaktik aloqalar sintaktik tuzilish chegarasidan chetga chiqsa, unda moslashadigan so'z hokim so'zdan ajratiladi va ilova konstruksiyani hosil qiladi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, turli ilova konstruksiyalarning hosil bo'lishida nafaqat alohida so'zlar, balki so'z birikmalari yoki butun gaplar (bog'langan, ergash gapli qo'shma gaplar) ham ishtirok etishlari mumkin.

Gapda ma'lum bir sintaktik strukturani namoyon qilishi ilova konstruksiyalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, unda ilovali element bog'lovchili yoki bog'lovchisiz kelishi mumkin va har doim nuqtadan keyin turadi. Quyidagi misol ushbu fikrni tasdiqlab keladi.

O, schießen Sie keine Böcke! Hüten Sie sich vor den Böcken. Nichts ist entsetzlicher als ein Bock. (Selbmann Fritz. Die Söhne der Wölfe. S.67).

Mazkur misolda ilovali aloqa ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topgan, bir-biri bilan shaklan va mazmunan bog'langan murakkab sintaktik butunlikni hosil qiladi.

Tilimizda mavjud bo'lgan bunday ilova konstruksiyalar qo'shimcha xabar, fikrning belgisini ifodalash uchun xizmat qiladigan o'ziga xos sintaktik strukturalar bo'lib, "avval bildirilgan fikrga qo'shimcha ma'no sifatida yaqqol namoyon bo'ladi".³¹ Ilova konstruksiyalar belgisini ko'rsatadigan qo'shimcha axborotning semantik xususiyati o'zining formal ifodasini eng avvalo, ilovali aloqalarning struktural vositalarida topadi: bu maxsus biriktiruvchi bog'lovchi yoki uning semantik analoglari (o'rnini bosadigan so'zlar) – "qo'shimcha axborot

³¹ Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи: Дисс... док. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993 – С. 91.

berish g‘oyasi”ni ifodalaydigan so‘z va iboralardan iborat. Ular odatda alohida so‘z yoki so‘z birikmalari shaklida qo‘llanishi mumkin.

Taniqli tilshunos olim B.Tursunovning ta’kidlashicha, ilova sintaktik bog‘lanishning struktur-semantik turidir. Kommunikativ bo‘laklarga bo‘lingan strukturalarga kelsak, xususan, ilova konstruksiyalarga barcha qayd qilingan bo‘laklar kiradi, parsellyasiyaga kiruvchi qismlar bundan mustasno. Shu o‘rinda ilova konstruksiyalar va parsellyativ konstruksiyalarni farqlash lozim. Ilova (qo‘shimcha) ma’no yoki ilova munosabatining mavjudligi haqida quyidagi holatda aniq so‘z yuritish mumkin: birinchidan, ilova aloqaning shaklan-struktural ifodasi o‘z aksini topgan bo‘lishi lozim; ikkinchidan, ana shu ko‘rsatkichlar va struktura asosida uning o‘ziga xos konstruksiyasi - ilova konstruksiyalar³² haqida gapirish mumkin. Ushbu fikrlarni inobatga olib, dinamik (kommunikativ bo‘laklarga bo‘lingan) ilova konstruksiyalar va statik (kommunikativ bo‘laklarga bo‘linmagan) ilova konstruksiya tushunchalariga ega bo‘lamiz. Ilova konstruksiyalarning bunday nomlanishi ularning shaklan ifodalanishidan kelib chiqadi.

Nemis tilida ilova konstruksiyasidan tashqarida kam sonli ayrim strukturalar ham mavjud bo‘lib, ularda ham ma’lum darajada ilova munosabatlari kuzatiladi. Lekin ularda ilova munosabatlari ancha kuchsiz va yetakchi semantik munosabat hisoblanmaydi. Ular ham ilovali elementlarga o‘xshash “qo‘shimcha ma’no” berish xususiyatiga ega bo‘ladilar. Shu jihatdan, bunday tuzilmalarni ilovali elementlardan farqlash ancha qiyinchilik tug‘diradi, chunki har ikkalasi ham “qo‘shimcha xabar berish” belgisiga ega bo‘ladi.

Masalan: Setzen wir einmal den Fall, es entstände eine Verknappung von Lebensmitteln. Aber ich setzte nur den Fall, daß die Mauern bersten und sich verschieben (Duden. Redewendungen. S. 202).

Shuni ham aytib o‘tishimiz mumkinki, bunday ilova konstruksiyalarning xususiyatlari ko‘p bo‘lakli konstruksiya tarkibidagi struktural qismlarda ham kuzatiladi, ularda alohida olingan avtosemantik kommunikativ birlik xususiyatlari namoyon bo‘lmaydi, shu sababdan, bu sintaktik kompleksdagi boshqa predikativ qismlarni sodda gaplar bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Ushbu ilova konstruksiyalarda komponentlar kontaktli joylashishga intiladi. Asosiy ifoda va ilovali elementlarning kontaktli joylashadi, bunday ilova konstruksiya struktural-semantik butunligining muhim sharti hisoblanadi.

Masalan: Genia, schmal und zart, sitzt etwas verloren im schweren Kontunensessel. Ihr Blick ruht auf dem Tellebild, das noch immer nicht mehr zeigt als festiges Land in sonderbar fahren schein. Sie träumt mit offenen Augen. Von der Zukunft, von all dem, was sie in wenigen Stunden sehen und erleben wird (Krupkat Günter. Als die Götter starben. S.5).

Demak, bunday ilova konstruksiyalarda ilova qilinayotgan komponent tuzilishi jihatdan gapning ikkinchi darajali bo‘laklari yoki ergash gaplar shaklida namoyon bo‘ladi. Ushbu ilova konstruksiyaning ilova qilinayotgan komponenti

³² Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи: Дисс... док. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993 – С. 97.

yozma nutqda alohida gap sifatida rasmiylashtirilishi mumkin, ko‘p hollarda ularda hatto bosh bo‘laklar ham ishtirok etmaydi, ya’ni predikativlik shaklan-struktur jihatdan ifodalanmaydi. Bu yerda ilova konstruksiyadagi ilova qilinayotgan komponentda alohida xabarning sifati oldingi kontekstga suyanan holda ta’minlanadi. Shunday qilib, bu ilova konstruksiya sintaktik butunlik sifatida konstruktiv va kommunikativ belgilar qarama-qarshiligida mavjud bo‘ladi: uning barcha komponentlari intonatsiya jihatidan alohida gaplar shaklida rasmiylashtiriladi.

Ilovali elementlar turli xil strukturaviy tuzilishlarga ega bo‘lishi, xilma-xil semantik vazifalarni bajarib kelishi bilan bir qatorda ma’lum bo‘laklarga nisbatan rang-barang uslubiy vazifalarni ham bajarib kelishi mumkin. Ilovali elementlarning stilistik vazifalari tabiat va jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni, asar qahramonlarining foaliyatini, hatti-harakatini, fikr o‘yini, his-tuyg‘ularini, shuningdek, ularning psixologik kechinmalarini, ularga xos bo‘lgan ijobiy va salbiy xislatlarni tasvirlab va ta’riflab berishdan iborat. Ularga xos bo‘lgan bunday xususiyatlarni tasvirlab berishda va tasvirlanayotgan voqeani kitobxonga yetkazishda turli tuman tasviriy vositalardan foydalaniladi. Bunday tasviriy vositalarning ifodalanish usullari ham turli-tuman. Ular umumiylikni konkretlashtirish, antiteza, takror vositasi, perifraz, biron-bir elementning tushirilib qoldirilishi, so‘z tartibi, o‘xshatish va boshqalar. Demak, bunday xilma-xil tasviriy vositalarni izohlab berishda leksik va grammatik vositalar muhim rol o‘ynaydi.

Ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlariga ajratishda taniqli olim Yu.S.Moraruning fikricha, ilovadagi asosiy gap (ifoda)ning strukturasi hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. U ”sodda strukturali ilova konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlarning soni asosiy ifodada ham, ilova qismida ham bir xil bo‘lishi lozim, ya’ni bittadan gap yoki sintagmalardan oshmasligi talab qilinadi; murakkab strukturali ilova konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlar esa, ham asosiy ifoda tarkibida, ham ilova qismida ikkitadan kam bo‘lmasligi lozim”³³ – deydi.

Demak, murakkab strukturali ilova konstruksiyalarni tashkil etuvchi asosiy ifodaning soni bilan iloval elementlarning miqdori baravariga oshishi kerak, ya’ni ikkitadan kam bo‘lmasligi lozim. Shu o‘rinda aytish mumkinki, ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlariga ajratishda ularning lingvistik mohiyatiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ilova hodisasi, ilova konstruksiya yoki ilova munosabatlar ham iloval elementlarning aytilgan fikrlarga qo‘shimcha ma’no, mazmun berishga qaratilgan lingvistik mohiyatidan kelib chiqadi. Ko‘rinadiki, bunday iloval elementlarning miqdori bittadan ortiq bo‘lgan ilova konstruksiyalarni murakkab strukturali ilova konstruksiyalar deb atash lozim. Bunday konstruksiyalarda iloval element sifatida frazeologizmlar qo‘llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin. Masalan:

³³ Морару Ю.С. О некоторых типах присоединительных конструкций (на материале современного испанского языка). – Кишинев: Штиинца, 1982. – С. 108.

1. Er stellte sich immer zu Toni vor. Ihre runde Stirn, ihre dichten Wimpern, und ihren Mund, der nicht viel sprach und nicht viel lächelte. Und ihre glatten bräunlichen Arme. Und das dicke geflochnete Haar um den Klopff (Seghers Anna. Das Vertrauen. S.59).

2. Mit dem ganzen Karrierestreß war bei mir schon vor Jahren Feierabend. Das ist ein Stück meiner Geschichte, dazu stehe ich, und damit Feierabend! (Duden. Redewendungen. S.208).

